

“THE SCORPION FROM THE ALTAR” NOVEL AND THE NATIONAL SPIRIT OF UZBEK LITERATURE

*Islom Karimov Tashkent State Technical University,
Faculty of Mechanical Engineering,
4th-year student of “Metals Technology” program
Rayimqulov Diyorbek Akhror o‘g‘li*

Annotation: “Mehrobdan Chayon” was written during a period of sharp transformation in Turkestan at the beginning of a new era. Through the novel, Qodiriy reveals the roots of such social vices as moral decline, careerism, ignorance, backwardness, and injustice. The work places the “scorpion” — symbolizing betrayal, hypocrisy, and oppression — alongside the symbols of “love” and “justice,” exposing the hidden cruelty concealed beneath seemingly noble values.

Keywords: Abdulla Qodiriy, nationality, national identity, traditions and customs, realism, historical novel, artistic depiction, Uzbek literature, national consciousness, social life, traditions, culture, national heroes, the spirit of Uzbek identity, Anvar, Ra’no, творчество (creativity), character, the magic of words, structural component, analysis.

Atoqli o‘zbek yozuvchisi Abdulla Qodiriy “Mehrobdan chayon” romanini 1928-yilda yaratadi. Bu roman o‘zbek adabiyoti tarixida adibning “O‘tkan kunlar” dan keying ikkinchi asari bo‘ladi. Asar huddi “O‘tkan kunlar” kabi keng kitobxonlar tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi. Roman qahramonlari Anvar va Ra’nolar ham Otabek va Kumush kabi xalqimizning sevimli qahramonlariga aylanib ketdi..

Agar Farhodning Shirin, bo‘lsa Majnunlarning Laylosi,
Nasib o‘lmish menga gulashan aro gullarning – Ra’nosi

(Mirzo)

Agar or etsa Layli haqlidir Qaysning jununidin,

Ne baxt, Ra'no, xaridoringtalab ahlining -Mirzosi

(Ra'no)

Asarni " Mehrobdan chayon" deb adash , ziyoli ulamolarni qahramon qilib tanlashdan murod muqaddas dargoh - sajdagohdan chiqqan , o'sha dargohga nomunosib munofiq, qallob, tuban kimsalarga, hasadgo'y, e'tiqodsiz kishilarga ishoradir.

Qodiriy asarlarida sevgi ko'pincha insonlarning ichki dunyosini ochib beruchi kuch sifatida tasvirlanadi. Masalan "mehrobdan chayon" romanida do'stlik va sadoqat qahramonlar hayotidagi qiyinchliklarni yengishda muhim rol o'ynaydi do'stlar o'rtasidagi munosabatlar, bir-biriga bo'lgan ishonchi va yordam berish istagi asarlarni yanada qiziqarli va hayajonli qiladi. Anvar характери haqida fikr yuritganda ham uning mantig'iga e'tibor qaratadi. Zarur o'rinlarda Otabek bilan qiyoslanadi.

Asarda Anvar obrazini batafsil tahlilini beradi. Uning kamtarin yigit ekani, Solih Mahdum eshigida asrandi sifatida ta'lim olishi, iste'dodli va qobilyatli bo'lsada, uning jamoatchilikda ko'z-ko'z qilavermasligi, hatto uni mirzaboshi qilib tayinlamoqchi bo'lishganda ham o'zini bu mansabga munosib, deb biladi, chunki u yosh bo'lishiga qaramay O'rdada bir necha yil oddiy mirzo bo'lib ishlab vaziyatni, muhit oqimini, odamlararo ziddiyatni to'la anglab yetgan va mirzaboshi etib tayinlansa hasadgo'ylik illatlari ishga tushishni aniq his qiladi.

Ra'no obrazi orqali Qodiriy ayolning jamiyatdagi o'rniga e'tibor qaratadi. Ra'no go'zallik va sadoqat timsoli bo'lish bilan birga, davr ayollarining fojeasini ham mujassamlashtiradi. Uning murakkab taqdiri jamiyatdagi adolatsizlikning oqibatlarini ko'rsatadi. Boylikka mahliyo, lekin irodasi sust inson.

Qodiriy bu obraz orqali boylar tabaqasining ichki bo'shlig'ini, ma'naviy ojizligiga tanqidiy munosabat bildiradi. Asarning ichki jarayonida ko'rinib turibdiki boshlanish tugunlar haqida gap ketganda, uning bir uchi Solih Maxdum bilan bog'lansa,

boshqa bir tomoni Abdurahmon domlaga borib taqalishi asoslanadi. Solih Maxdunga aloqador jihatini munaqqid Anvar mirzaboshi bo'lgandan keyin uni qizi Ra'noga uylantirish rejasi bilan asoslanadi. Kitobda Abdurahmon domla obrazi ham tahlilga tortilib, uning Buxoro madararasida tayinli tahsil olmay boshqa nojoiz ishlar bilan shug'ullangani, o'qishni zo'rg'a tugatib oddiy bir imomlikka ilingani haqidagi tasvirlarga to'xtalar ekan, uning tabiatiga xos bo'lgan hasadgo'ylik hususiga to'xtaladi.

Gap shundaki, romanda Anvarning boshiga mushkul ish tushgan vaqtda, ya'ni Sultonali qamalib, uning hayoti xavf ostida turgan bir paytda bolaligida onasi tomonidan kimlargadir berib yuborilgan akasi Qobil o'rtoqlari bilan Samarqand tomonlardan ukasini so'roqlab kelib qoladi munaqqid oshnolarning "pul oshnasi emas odam oshnasi" ekani haqida kattagina parchani keltiradi va bu yozuvchi mahoarati sifatida baholaydi. Xullas Qobil va uning o'rtoqlarining qaltis paytida Anvarga yordam berishi, Safar bo'zchi va Anvar taraf xalq hamkorligida o'limdan qutqarib Toshkentga qochirib yuborishlari bir tasodifday tuyulsada, lekin yozuvchining badiiy asoslashi tufayli badiiy haqiqatga aylangani ta'kidlanadi. Bundan tashqari asarni yaratilgan davri ya'ni o'tgan asrning 20-yillarida adabiyot hali xalq og'zaki ijodi ta'siridan butkul uzoqlashib ketmagani, shu bois yozuvchi tasodiflardan unumli foydalangan, badiiylikni kuchaytirish uchun o'ziga xos badiiy usulni qo'llagan.

Asar yakunidagi kabi Anvar qiyofasidagi Qodiriyni xalq qutqarishiga umid bog'ladi. Zero Cho'lpon aytganidek "Xalq dengizdir, xalq to'lqindir, xalq kuchdir". Ming afsus...Abdulla Qodiriy hayotida uni qutqarguvchi xalq bo'lmadi. Lekin yozuvchining davrdosh-u davradosh, lek, darddosh bo'lolmagan hamkasblari mehrobdan chiqqan chayonlik vazifasini to'liq ado etdilar. Bundayin ruhdagi asarlari orqali Qodiriy o'z xalqiga, yurtdoshlariga, katta lavozimli amaldorlarga ko'zgudagi asl turqini ko'rsatib, rohat botqog'idan chiqishga chorladi. Ammo qon rangi xush ko'rguchi qizil imperiyaga Otabek-u Anvar emas, Obid ketmonlar kerak edi. Hammasi

tugadi.1938-yil 4-oktyabr millatimiz tarixidagi qonli sana. Abdulla Qodiriyning soʻngi soʻzlari esa hukmni ijro qiluvchi zobitga boʻldi. Soʻnggi istagim, iltimos ikki rakat namozimni oʻqib olay dedi.

Garchi “Oʻtgan kunlar”, “Mehrobdan chayon” sevgi qissasiga oʻxshasada, uning zaminida Vatan taqdiri, Vatan qaygʻusi yotadi.

Adib yuragida alamlar qat-qat,

Lekin bittasi bor, oʻchmasdir dogʻi:

Jonni tik ozodlik yoʻlida faqat,

Bu ustozning soʻnggi sabogʻi.

Xulosa qilib aytganda “Mehrobdan chayon” Abdulla Qodiriyning badiiy mahorati kamolga yetgan yirik asarlaridan biridir. Romanda ijtimoiy hayotning ogʻriqli nuqtalari, insoniylik va razillik kurashi, shaxsiy manfaat va adolat oʻrtasidagi ziddiyatlar chuqur tahlil etilgan. Qodiriy bu asar orqali oʻzbek adabiyotini yangi pogʻonaga olib chiqdi, realistik roman maktabining shakllanishiga ulkan hissa qoʻshdi. Asar bugun ham ahamiyatini yoʻqotmagan, insonni oʻylashga, oʻzligini anglashga chorlaydigan badiiy yodgorlik sifatida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.A.Qahhor. Asarlar. T.VI. Toshkent: Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1970. 411-bet. 2. Oʻ.Nosirov. Ijodkorshaxs badiiy uslub,avtor obrazi. Toshkent: Fan, 1981. 109-110-betlar. B.Karim. Dunyo olimlari nigohi. Avulla Qodiriy va germanevtik tafakkur maqola 2016
3. Abdulla Qodiriy. “Mehrobdan chayon” romani. Toshkent. 2019
4. I.Sulton. Adabiyot nazariyasi.Avtor nutqi va personaj nutqi. Toshkent:
5. Bashir. Oʻzbek adabiyoti.- Qozon, 1929. B.15
6. Ismatulla X.Abdulla Qodiriy abadiyati. Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati. 1994-yil 14 oktabr